



XALQ DEPUTATLARI NAMANGAN VILOYATI KENGASHINING QARORI

2025-yil 30-dekabr

VII-17-172-6-0-K/25

Namangan viloyati

Namangan viloyatida 2026-yilda davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining eng kam stavkalarini tasdiqlash haqida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-98-son Farmoni tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-dekabrda "Davlat mulkini ijaraga berish tartibini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 660-sonli qaror bilan tasdiqlangan "Davlat mulkini ijaraga berish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 33 va 34-bandlariga muvofiq, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Namangan viloyati hududiy boshqarmasining 2025-yil 11-dekabrda 01-23-19/2223-sonli xatini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan, Xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Namangan viloyat hududiy boshqarmasi B.Matmusayevning Namangan viloyati hududida 2026-yilda davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining eng kam stavkalari to'g'risidagi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Namangan viloyat hududiy boshqarmasining viloyat hududida 2026-yilda davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining eng kam stavkalari yuzasidan taqdimoti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Namangan viloyat hududiy boshqarmasining Namangan viloyati hududida 2026-yilda davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining eng kam stavkalari yuzasidan berilgan takliflari inobatga olinsin.

4. Namangan viloyati hududida 2026-yilda davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining eng kam stavkalari ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

Namangan viloyatida 2026-yil davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining eng kam stavkalari **1-ilovaga** muvofiq;

Sanoat zonalarida hududlaridagi davlat ko'chmas mulkini 2026-yilda ijaraga berishda qo'llaniladigan ijara to'lovining eng kam stavkalari **2-ilovaga** muvofiq;

Ijara to'lovi stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlar **3-ilovaga** muvofiq;

Ijara to'lovining eng kam stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlarning hisoblash tartibi **4-ilovaga** muvofiq;

Viloyat markazi hamda shahar va tumanlar markaziy (birinchi darajali) ko'chalar ro'yxati **5-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

5. O'zbekiston Respublikasi Davlat aktiv agentligi huzuridagi Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining viloyat hududiy boshqarmasi boshlig'i (A.Axmadaliyev)ga:

davlat mulkini ijaraga berishni tashkil etish va ijaraga berish;

ijaraga berilgan davlat mulkini va uni ijaraga berishdan tushadigan mablag'larni hisobga olish va monitoringini olib borish;

ijaraga beriladigan davlat mulki bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish;

ijara obyektlaridan maqsadli foydalanilishini va ularning saqlanishini, shuningdek ijara to'lovi o'z vaqtida va to'liq to'lanishini nazorat qilish;

davlat mulkini ijaraga berish sohasidagi qonunchilikni buzish holatlari aniqlangan hollarda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnomalar rasmiylashtirish va sudlarga yuborish;

foydalanilmayotgan davlat mulki ijaraga berilishi to'g'risidagi e'lonlarni va ijaraga berilayotgan davlat mulklari ro'yxatlarini davriy nashrlarda hamda viloyat hokimligining, O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasining va Savdo-sanoat palatasi viloyat hududiy boshqarmasining veb-saytlarida va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida joylashtirilishini ta'minlash topshirilsin.

6. O'zbekiston Respublikasi Davlat aktiv agentligi huzuridagi Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining viloyat hududiy boshqarmasi boshlig'i (A.Axmadaliyev), viloyat Soliq boshqarmasi (Sh.Imomov), shahar va

tuman hokimliklari hududlarda ijara munosabatlarini tartibga solish, ijaraga berilayotgan davlat mulki hisobotini to'g'ri yuritish va budjetga qo'shimcha mablag'larni jalb qilish maqsadida davlat mulkini balansda saqlovchilari tomonidan ijaraga berish samaradorligini oshirish va tashkillashtirishda o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'ysin.

7. Vazirlik va idoralarning viloyat boshqarmalari hamda tizim tashkilotlari balansidagi davlat mulklarini xatlovdan o'tkazsin va bo'sh turgan yoki samarasiz foydalanilayotgan davlat mulklarini ijaraga berish bo'yicha har chorak yakuni bilan hisobot oyidan keyingi oyning 10-sanasigacha Davaktiv agentligi huzuridagi Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining viloyat hududiy boshqarmasiga bu mulkning joylashgan joyi, miqdori, tarkibi va boshqa umumiy tavsiflari ko'rsatilgan ma'lumotlarini taqdim etib borsin.

8. Davlat kadastrlar palatasi viloyat hududiy boshqarmasi (M.Tursunbayev) har chorak yakuni bilan keyingi oyning 5-sanasiga qadar viloyatda mavjud davlat mulki obyektlarining ro'yxatini elektron holatda Davaktiv agentligi huzuridagi Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining viloyat hududiy boshqarmasiga taqdim etib borsin.

9. Viloyat hududida 2025-yilda davlat mulki bo'lgan binolar va xonalarda joylashgan budjet tashkilotlari uchun ijara to'lovining "nol" stavkasi belgilansin.

10. Mazkur qaror "Namangan haqiqati" va "Namanganskaya pravda" gazetalarida e'lon qilinsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb saytiga joylashtirilsin.

11. Viloyat hokimining 2025-yil 30-yanvardagi Namangan viloyatida 2025-yilda davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining eng kam stavkalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 44-6-0-Q/25-son qarori 2026-yil 1-yanvardan o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

12. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi I.Ikromov hamda viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari-iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig'i Z.Baxriddinov zimmasiga yuklansin.

13. Ushbu Kengash qarori 2026-yil 1-yanvar kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi



**MUMINOV
SOLIJON
DJALILOVICH**

Xalq deputatlari Namangan viloyati
Kengashining
2025-yil 30-dekabrda
VII-17-172-6-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Viloyatning ma'muriy markazlari hududida va ma'muriy markazlaridan tashqari
hududlarida joylashgan davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun
2026-yilda 1 kv.metr uchun qo'llaniladigan ijara to'lovining eng kam stavkalari
(iqtisodiy sohalar va tarmoqlar bo'yicha)**

№	Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadi	2026 yilda 1 kv.m. maydon uchun yillik eng kam ijara to'lovi stavkalari (QQS bilan birga) so'mda	
		Namangan shahri va tarkibidagi tumanlarda	Tumanlarda
Ishlab chiqarish			
1	Ishlab chiqarish turlari bo'yicha (kimyo, neft, mashinasozlik, hisoblash texnikalari, traktorsozlik, maishiy anjomlar, sanitariya, metall, tamaki, elektronika va santexnika mahsulotlari va jihozlari)	18 240	12 882
2	Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	57 798	41 895
3	Elektr energiya ishlab chiqarish	18 240	12 882
Qurilish sanoati			
4	Qurilish mahsulotlari sanoati (asfalt, bitum, tosh saralash, shlakoblok, penablok, gazoblok, suvoq qorishmalari, gipsokarton, tunikafon, shifer, sement, senvich panel ishlab chiqarish va yog'ochni qayta ishlash)	18 240	12 882
5	Deraza, eshiklar va mebel ishlab chiqarish sanoati (yog'ochdan)	60 762	39 387
6	Deraza, eshik va mebellar ishlab chiqarish (plastik, alyumin va MDFdan)	96 672	55 233
Yengil sanoat			
7	Yengil sanoat turlari bo'yicha (to'qimachilik, tikuvchilik, charm, mo'yna, poyabzal, selliyuloza-qog'oz sanoati)	18 240	12 882

Oziq-ovqat sanoati			
8	Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish (yogʻ, goʻsht, baliq, ichimlik, un, qandolat mahsulotlari hamda omuxta-yem sanoati)	18 240	12 882
9	Chorva (qoʻy) mollarini soʻyish va sotish (jumladan kushxona)	51 528	37 050
10	Sut mahsulotlari sanoati	35 682	25 764
11	Non va qolipli (bulka) non mahsulotlari ishlab chiqarish	51 528	32 148
Qishloq xoʻjaligi			
12	Oʻsimlikshunoslik (oʻrmon xoʻjaligi va bogʻlar) 1 gektar yer maydoni uchun	7 230 944	5 178 880
13	Issiqxona xoʻjaligi 1 gektar yer maydoni uchun	18 033 120	12 433 120
14	Chorva va parranda yetishtirish (boqish)	8 778	6 384
15	Baliqchilik (shu jumladan sunʼiy maydon) 1 gektar uchun	16 190 944	10 778 880
16	Asalarichilik 1 gektar yer maydoni uchun	4 700 528	3 366 608
Transport va aloqa			
17	Transport infratuzilmalari (avtopark, taksopark, avtomobil toʻxtash joylari va garaj)	18 240	12 882
18	Transport infratuzilmalari (jarima maydonlari)	9 348	4 617
19	Avtomobillarni yuvish	59 052	37 164
20	Avtomobillarga yoqilgʻi quyish (benzin, dizel)	64 410	47 994
21	Avtomobillarga yoqilgʻi quyish (gaz quyish shoxobchalari)	71 820	51 984
22	Elektromobillarni quvvatlash shoxobchasi	31 236	22 686
23	Yengil avtomashinalar va boshqa turdagi transport vositalarini taʼmirlash va texnik xizmat koʻrsatish	58 938	42 066
24	Vulkanizatsiya, payvandlash, chilangarlik ishlarining	44 802	32 376

	barcha turlari		
25	Aholi buyurtmasiga asosan yuk tashish va transport xizmatlari	33 174	23 940
26	Pochta va kuryerlik aloqasi	40 926	29 640
27	Elektr-simli aloqa (WIFI Router)	36 822	26 220
28	Radio, uyali aloqa va peydjer aloqasi (inshootlarni hisobga olgan holda hudud doirasida)	154 584	110 808
Savdo va umumiy ovqatlanish			
29	Ulgurji savdo	51 528	37 050
30	Mahsulotlarni (xizmatlarni) qismlab savdo faoliyatini amalga oshiruvchi ulgurji savdo bozorlaridagi savdo do'konlari	132 354	94 620
31	Chakana savdo	51 528	37 050
32	Sotuvchisiz elektron uskunalalar orqali chakana savdoni tashkil etish	125 172	102 372
33	Umumiy ovqatlanish (Tabiiy va sun'iy suv havzalari hamda daryo bo'ylarida baliq mahsulotlari va taomlari savdosi, fast fud)	51 528	37 050
34	Kitob do'konlari	7 182	5 358
35	Lombardlar	66 576	47 652
Xizmat ko'rsatish			
36	Xizmat ko'rsatish turlari bo'yicha (xo'jalik buyumlarini ijaraga berish, nusxa ko'chirish, ko'chmas mulklar bilan bog'liq xizmatlar, reklama va ko'rgazmalar, geodeziya va gidrometeorologiya)	51 528	37 050
37	Kompyuter o'yinlarini tashkil etish	77 292	55 518
38	Mehmonxona xo'jaligi	58 938	42 066
39	Umumiy yashash joylari (shu jumladan talabalar va o'quvchilar turar joylari)	45 828	32 148
40	Maishiy xizmatning noishlab chiqarish turlari (veterinariya xizmatlari, kimyoviy tozalash va	29 640	21 090

	bo'yash, avtomobil, velosiped, samokatlarni ijaraga berish, paxta va jun tozalash va titish hamda ko'ngilochar qurilmalar joylashtirish)		
41	Mashina va uskunalarni ta'mirlash	18 240	12 882
42	Loyiha, loyiha-qidiruv tashkilotlari	40 926	29 640
43	Poligrafiya sanoati	44 802	37 050
44	Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar	40 926	29 640
45	Suv bo'yida xizmat ko'rsatish joylari (plyaj zonalari, baliq ovlash maskanlari, qayiqda suzish va suv sayohati va suv bo'yida turizm xizmatlarini tashkil etish)*	36 822	26 220
46	Quyosh panellari va suv isitish qurilmalar joylashtirish	8 778	6 384
47	Sartaroshxona, fotosalon, modalar atelesi, poyabzallarni ta'mirlash ustaxonasi	44 346	32 148
48	Hammomlar	88 692	63 384
49	Saunalar va basseynlar	176 700	126 654
Turizm xizmatlari			
50	Madaniy meros obyektlarida hunarmandchilik turlari bo'yicha (misgarlik, zargarlik, o'ymakorlik, rassomchilik, do'ppido'zlik, telpak, cho'girma, chopon va x.k)	54 948	42 978
51	Hunarmandchilik turlari bo'yicha (yodgorlik majmualari yasash, misgarlik, zargarlik, o'ymakorlik, rassomchilik, do'ppido'zlik, telpak, cho'girma, chopon va x.k)	43 548	31 578
52	Madaniy meros obyektlarida hostel va mehmonxona xizmatlarini tashkil etish	103 398	80 598
53	Madaniy meros obyektlarida savdo xizmatlarini ko'rsatish (esdalik buyumlari, sovg'alar, hunarmandchilik mahsulotlari va h.k)	80 712	57 912
54	Madaniy meros obyektlarida umumiy ovqatlanish shoxobchalari (restoran, kafe, fas-fud va h.k)	91 998	65 778

55	Madaniy ko'ngilochar markazlar (bilyard, o'yin avtomatlari, diskoteka)	58 938	42 066
Sog'liqni saqlash			
56	Davolash maskani (statsionar davolash)	36 822	26 220
57	Davolash maskani (shu jumladan laboratoriya, operatsion blok, stamatologiya, fizioterapiya)	113 430	90 630
58	Tibbiy asbob uskunalari o'rnatish (massajlovchi stullar, MRT, UZI, MSKT, rentgen va boshqa qurilmalari)	140 334	117 534
59	Tibbiyot sanoati (Tibbiyot buyumlari, asbob uskunalari va dori vositalari ishlab chiqarish)	141 474	118 674
60	Fitobar	25 422	18 240
61	Dorixonalar (optika, tibbiyot anjomlari va jihozlari sotish)	62 016	33 288
62	Protez-ortopediya moslamalarini tayyorlash va ta'mirlash	36 822	26 220
63	Ijtimoiy-dorixonalar	26 220	17 100
Jismoniy tarbiya va sport			
64	Sport maydonlari (stadionlar)	33 402	27 702
65	Sport zallari (qo'l jangi, karate, kurash, sambo, erkin kurash va h.k)	18 240	12 882
66	Fitnes va yengil atletika zallari	145 920	123 120**
Ta'lim			
67	Nodavlat ta'lim tashkilotlari (oliy, o'rta va maktabgacha tarbiya muassasalari)	36 176	25 760
68	Tayyorlov kurslari (IT, malaka oshirish va repitetorlik)	59 696	43 232
69	Oliy ta'lim muassasalarida umumiy ovqatlanish	35 910	25 878
70	O'rta maxsus ta'lim muassasalarida (jumladan maktablarda) umumiy ovqatlanish	27 075	19 380

71	Madaniyat va san'at	51 528	37 050
72	Ko'rgazmalar	39 786	29 754
73	Madaniy dam olishni tashkil etish (bog'lar, zooparklar, televideniya va radioeshittirishlar redaksiyalari)	36 822	26 220
74	Kinostudiyalar, ovoz yozish studiyalari	58 938	42 066
75	Fan va ilmiy xizmatlar ko'rsatish	22 344	15 732
76	Avtomaktablar	32 661	18 696
77	O'quv amaliyot poligonlari (test tajriba va sinov maydonlari)	18 240	12 882
Moliya-kredit faoliyati			
78	Moliya, kredit va pensiya ta'minoti (sug'urtalash va auditorlik faoliyatidan tashqari)	51 528	37 050
79	Auditorlik faoliyati	51 528	34 656
80	Buxgalteriya va soliq servis xizmatlari	80 712	57 912
81	Marketing tadqiqotlari, tijorat, moliya va boshqaruv faoliyatlari bo'yicha maslahatxonalar	51 528	37 050
82	Bankomatlar	737 580	528 162
83	Paynetlar	147 858	105 735
84	Turli xizmat turlari uchun to'lov qabul qilish maskanlari (kassalar)	147 858	105 735
85	Front-ofislar (Banklar uchun)	62 928	51 528
86	Bank xizmatlari ofisi	51 528	37 050
87	Sug'urta faoliyati	44 346	37 050
88	Avia kassalar (shu jumladan temir yo'l, avtotransport va boshqalar)	80 712	57 912
Faoliyatning boshqa turlari			
89	Notarial xizmatlar	51 528	37 050

90	Sud va yuridik xizmat muassasalari hamda advokatlar kollegiyasi	44 346	32 148
91	Jamoat birlashmalari	14 877	10 374
92	Omborxonalar	51 528	37 050
93	Davlat korxonalar va muassasalari	22 344	15 732
94	Xususiy tashkilotlarga ofis	80 712	57 912
95	Arxiv xizmati	22 344	13 167
96	Tahririyat va nashriyotlar	29 640	21 090
97	Metallolom va ikkilamchi qog'oz (latta) mahsulotlarini to'plash joylari	29 640	21 090
98	Laboratoriyalar (Tibbiy xizmatlardan tashqari)	36 822	26 220

Izoh: Davlat mulkini ijaraga berishda imtiyozlar va preferensiyalar qo'llanishi qonunchilikda belgilangan tartiblarda amalga oshirilishi mumkin.

* O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.09.2023-yildagi "Davlatga tegishli suv havzalarini tadbirkorlik subyektlariga "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali ijaraga berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 441-son qaroriga asosan qo'shilgan faoliyat turlari.

** Mazkur faoliyat turlari bo'yicha 4 va 5 toifadagi tumanlar hududidagi davlat mulki bo'lgan ijtimoiy soha obyektlarini faqat o'z faoliyat yo'nalishini saqlagan holda ijaraga berishda amaldagi minimal stavkaga nisbatan 50 foiz imtiyoz qo'llaniladi.

Xalq deputatlari Namangan viloyati
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-172-6-0-K/25 -son qaroriga
2-ilova

**Sanaot zonalari hududlaridagi davlat ko'chmas mulkini 2026-yilda ijaraga berishda 1 kv.metr
uchun qo'llaniladigan ijara to'lovining eng kam stavkalari**

ming so'm

T/R	Hudud nomi	Taklif etilayotgan narx (QQS bilan birga) (respublika tuman va shaharlari toifalari bo'yicha)				
		1-toifa (1 kv.m)	2-toifa (1 kv.m)	3-toifa (1 kv.m)	4-toifa (1 kv.m)	5-toifa (1 kv.m)
1	Namangan viloyati	257 184	218 606	180 029	141 451	128 592

Xalq deputatlari Namangan viloyati
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-172-6-0-K/25 -son qaroriga
3-ilova

**Davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining
eng kam stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlar**

Obyektning joylashgan o'rni va turlari bo'yicha	Qo'llaniladigan koeffitsientlar		
	1-toifa	2- va 3- toifalar	4- va 5- toifalar
1. Ijara obyektini xududiy zonalar bo'yicha koeffitsient - (Kz)	2,2	2,0	1,6
1.1. Uyali aloqa qurilma va moslamalari uchun	1.8		
2. Obektning qurilish turi bo'yicha koeffitsient - (Kq)			
- alohida turadigan binolar bo'yicha	1,3	1,2	0,9
- bino ichida va bino yonida qurilganlari bo'yicha	1,0		0,8
- yarim yerto'la va yerto'la xonalari, cherdak, bolaxona qismlari bo'yicha	0,6		0,5
- binoning tom qismidagi qurilmalar bo'yicha	0,6		
3. Yondosh hududdagi yer maydondan (texnik maydon, dehqonchilik maqsadida) foydalanilgandagi koeffitsient - (Kh)	0,5		
3.1. Uyali aloqa antennalari egallagan texnik maydonlar uchun	0,6		
4. Tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsienti - (Ko)	1,2	1,1	0,9
- binolarning tom qismidagi uyali aloqa antennalari o'rnatilgan qurilmalar uchun	0,6		

- Yer maydoniga o'rnatilgan uyali aloqa, radio, peydjer antenna va boshqa qurilmalar uchun ijara to'lovining tayanch stavkasi miqdori antenna tortqich qoziqlari umumiy perimetri bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-dekabrdagi 660-sonli qaroriga muvofiq ijara haqining eng kam stavkasi va unga qo'llaniladigan tegishli koeffitsientlar asosida belgilanadi.

- Davlat tashkilotlarining texnik maydonidan foydalanuvchi sub'ektlar uchun ijara to'lovining tayanch stavkasi miqdori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining 2023-yil 14-dekabrda 660-sonli qaroriga muvofiq ijara haqining eng kam stavkasi va qurilish turiga ko'ra belgilanadigan (Kq) koeffitsientlarni hisoblanmagan holda belgilanadi.

Bino va inshootlar bo'yicha ijara to'lovini (ijara to'lovining tayanch stavkasi) hisoblab chiqish quyidagi tarzda aniqlanadi:

$$T_s = E_s \times K_z \times (K_q + K_h + K_o).$$

T_s-bir yilga bir kv.metr maydon uchun ijara to'lovining tayanch stavkasi;

E_s- bir yilga bir kv.metr maydon uchun ijara to'lovining eng kam stavkasi;

K_z- hududiy zonalar koeffitsienti;

K_k-qurilish turi bo'yicha koeffitsient (alohida turgan bino, qo'shimcha qurilgan bino, binoning tom qismi, cherdak, bolaxona, yarim yerto'la, yerto'la);

K_h-tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsienti;

K_o-tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsienti (asosiy avtotransport yo'llari bo'ylab joylashish, ikkinchi darajali avtotransport yo'llariga chiqishda joylashish va boshqalar).

Izoh:

1-toifa Namangan shahar, Davlatobod tumani, Yangi Namangan tumani.

2-toifa To'raqo'rg'on, Uychi, Uchqo'rg'on tumanlari

3-toifa Kosonsoy, Namangan, Pop, Chortoq, Chust hamda Yangiqo'rg'on tumanlari

4-toifa Norin tumani

5-toifa Mingbuloq tumani

Xalq deputatlari Namangan viloyati
Kengashining
2025-yil 30-dekabrda
VII-17-172-6-0-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Ijara to'lovining eng kam stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlarning hisoblash tartibi

Davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining eng kam miqdori quyidagicha hisoblab chiqiladi:

$$T_s = E_s * K_z * (K_q + K_h + K_o)$$

Bunda:

T_s — davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun bir yilga bir kv.metr uchun ijara to'lovining eng kam miqdori;

E_s — davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun bir yilga bir kv.metr uchun ijara to'lovining eng kam stavkasi;

K_z — hududiy zonalar koeffitsiyenti;

K_q — Qurilish turi bo'yicha koeffitsiyent;

K_h — tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsiyenti;

K_o — tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsiyenti (asosiy avtotransport yo'llari bo'ylab joylashish, ikkinchi darajali avtotransport yo'llariga chiqishda joylashish va boshqalar).

Qurilish turi bo'yicha koeffitsiyent (K_q), tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsiyenti (K_h) va tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsiyenti (K_o)ning yig'indisi 1 birlikdan kam bo'lgan taqdirda, yaxlitlangan holda 1 birlikka teng hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan koeffitsiyentlar quyidagilarni ifodalaydi, jumladan:

- Hududiy zonalar koeffitsiyenti (K_z) – viloyat, tuman (shahar) markazlari hamda chekka hududlarning rivojlanganlik darajasidan kelib chiqqan holda belgilanadigan koeffitsiyent;

- Qurilish turi bo'yicha koeffitsiyent (K_q) – davlat mulki obyektini yaxlit holatda yoki uning bir qismini (yertulasi, yarim yer to'lasini, bino ichidagi xonasi, boloxonasi, tom qismi) hamda obyektga biriktirilgan yer maydoni, shu jumladan beton (asfalt) maydoni bo'yicha belgilanadigan koeffitsiyent.

Bunda, ijaraga oluvchi davlat mulki obyektini to'liq ijaraga olganda (shartnoma muddati davomida balansda saqlovchi obyektidan foydalanish imkoni cheklanganda) qurilish turi bo'yicha alohida turgan bino koeffitsiyenti qo'llaniladi;

Ijaraga oluvchi davlat mulki obyektining bir qismini yertulasi, yarim yer to'lasini, bino ichidagi xonasi, boloxonasi, tom qismi yoki biriktirilgan yer maydoni,

shu jumladan beton (asfalt) maydonini ijaraga olganda va ushbu maydonlardan balansda saqlovchi bilan birgalikda foydalanilganda qurilish turi bo'yicha koeffitsiyent ijaraga berilgan maydon obyektning joylashgan qismi asosida qo'llaniladi.

- Tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsiyenti (Kh) - ushbu koeffitsiyent davlat mulki obyektini yaxlit holatda (to'liq) ijaraga berilganda (shartnoma muddati davomida balansda saqlovchi obyektidan foydalanish imkoni cheklanganda) qo'llanilmaydi qolgan holatlarda (obyektning bir qismi berilganda) qo'llaniladi.

Ushbu koeffitsiyent qo'llanilmagan hollarda obyekt hududidagi betonlashtirilgan (asfaltlangan) maydonlari ijara maydoni sifatida shartnomaga kiritiladi va belgilangan tartibda to'lov undiriladi.

- Tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsiyenti (Ko) - ushbu koeffitsiyent obyekt joylashgan manzilining tijoriy faoliyat uchun qulaylik darajasini belgilaydi.

Bunda, ijaraga berilgan obyekt xalqaro va mahalliy ahamiyatdagi avtomobil yo'llariga tutash hududlarda joylashgan bo'lsa asosiy avtotransport yo'lida joylashgan hisoblanadi. Mahallalar ichki ko'chalarida joylashgan bo'lsa ikkinchi darajali avtotransport yo'lida joylashgan hisoblanadi.

Xalq deputatlari Namangan viloyati
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-172-6-0-K/25 -son qaroriga
5-ilova

**Namangan viloyati shahar(tuman)larining markaziy (birinchi darajali)
ko‘chalari ro‘yxati**

T/r.	Shahar va tumanlardagi ko‘chalar nomlari
<i>Namangan shahri</i>	
1.	A.Navoiy ko‘chasi
2.	Amir Temur ko‘chasi
3.	Boburshox ko‘chasi
4.	Xamrox ko‘chasi
5.	Ibrat ko‘chasi
6.	Uychi ko‘chasi
<i>Kosonsoy tumani</i>	
1.	“Gulobod” MFY Memor ko‘chasi
2.	“Alisher Navoiy” MFY Halqlar do‘stligi ko‘chasi
3.	“Maxdumi A’zam” MFY Shoxchinor ko‘chasi
4.	“Abdurahmon Jomiy” MFY Mug‘ qala ko‘chasi
<i>Yangi Namangan tumani</i>	
1.	Afrosiyob ko‘chasi
2.	Oromgox ko‘chasi
3.	Islom Karimov ko‘chasi
4.	Go‘zal ko‘chasi (Shimoliy aylanma)
5.	Chortoq ko‘chasi
<i>Davlatobod tumani</i>	
1.	Islom Karimov ko‘chasi
2.	G‘alaba ko‘chasi
3.	Ququmboyshox ko‘chasi
4.	To‘raqo‘rg‘on ko‘chasi
<i>To‘raqo‘rg‘on tumani</i>	
1.	Namangan ko‘chasi
2.	Kosonsoy ko‘chasi
3.	Chust ko‘chasi
<i>Chust tumani</i>	
1.	“Kamarsada” MFY Charog‘on ko‘chasi

2.	“Pansada” MFY Chustiy ko‘chasi
3.	“Birlik (shaxar)” MFY Chustiy ko‘chasi
4.	“Serob” MFY Ipak yo‘li ko‘chasi
5.	“Guliston” MFY Ipak yo‘li ko‘chasi
6.	“Do‘stlik” MFY Ipak yo‘li ko‘chasi
<i>Pop tumani</i>	
1.	Mustaqillik MFY, Oybek ko‘chasi
2.	Obod MFY, Istiqlol ko‘chasi
3.	Iftixor MFY, Shabboda ko‘chasi
4.	Bodomzor MFY, Bodomzor ko‘chasi
5.	Xamid Olimjon MFY, Do‘stlik ko‘chasi
<i>Mingbuloq tumani</i>	
1.	Bog‘i eram ko‘chasi
2.	Ozodlik ko‘chasi
3.	Andijon ko‘chasi
<i>Norin tumani</i>	
1.	O‘zbekiston ko‘chasi
2.	Beruniy ko‘chasi
3.	Mustaqillik ko‘chasi
<i>Namangan tumani</i>	
1.	Mustaqillik 5 yilligi ko‘chasi
<i>Uchqo‘rg‘on tumani</i>	
1.	Ulug‘bek MFY Andijon ko‘cha
2.	Chek MFY Mustaqillik ko‘cha
3.	Do‘stlik MFY Do‘stlik ko‘cha
4.	Ulug‘bek MFY Mustaqillik ko‘cha
<i>Uychi tumani</i>	
1.	Navoiy MFY A. Temur ko‘chasi
2.	Beruniy MFY A. Temur ko‘chasi
3.	Bog‘ MFY Beruniy ko‘chasi
<i>Chortoq tumani</i>	
1.	Namangan MFY Mustaqillik shox ko‘chasi
2.	Namangan MFY Namangan ko‘chasi
3.	Komillik MFY Boburshox ko‘chasi
4.	A.Navoiy MFY Istiqlol xiyoboni ko‘chasi
5.	A.Navoiy MFY M.Ulug‘bek ko‘chasi
<i>Yangiqo‘rg‘on tumani</i>	
1.	Beshbuloq MFY, Namangan ko‘chasi
2.	Beshbuloq MFY, Chortoq ko‘chasi

3.	Qutlug‘tol MFY, Chortoq ko‘chasi
4.	Ibrat MFY, Zarkent ko‘chasi
5.	Yuksalish MFY, Amir Temur ko‘chasi